OLIY TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISH SHAROITIDA INGLIZ TILI TA'LIMI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Urazbayeva Dilnoza Ruzimbayevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.22879754

Oliy ta'limning xalqarolashuvi ta'lim jarayonining tashqi aloqalarini kengaytirish bilangina cheklanmay, o'quv dasturlari, ta'lim mazmuni, pedagogik yondashuvlar va kutilayotgan ta'lim natijalarini ham qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. J. Knight xalqarolashtirishni oliy ta'limning xalqaro, madaniyatlararo va global jihatlarini uning asosiy funksiyalariga integratsiyalash jarayoni sifatida izohlaydi. B. Leask esa ushbu jarayonni bevosita o'quv dasturi mazmuni va pedagogik faoliyat bilan bog'lab, xalqarolashtirilgan curriculum talabalarning xalqaro va madaniyatlararo muhitda faoliyat yuritishiga tayyorlashi lozimligini ta'kidlaydi.

Mazkur jarayonda ingliz tili alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki u xalqaro ilmiy adabiyotlardan foydalanish, akademik yozuv, konferensiya va ilmiy muloqot, xalqaro hamkorlik hamda kasbiy kommunikatsiyaning muhim vositalaridan biridir. Shu sababli oliy ta'limdagi ingliz tili ta'limi mazmunini faqat umumiy til kompetensiyasi bilan cheklash yetarli emas.

E. Macaro tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oliy ta'limdagi English-medium instruction (EMI) masalalari tizimli ravishda o'rganilib, ingliz tilida akademik fanlarni o'zlashtirish jarayonida til va mazmunning o'zaro munosabati, talabalar uchun yuzaga keladigan lingvistik va pedagogik muammolar tahlil qilingan. Keyingi tadqiqotlar akademik yozuv, lug'at boyligi va ingliz tilida akademik faoliyat yuritish bilan bog'liq qiyinchiliklar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Shu nuqtada EAP (English for Academic Purposes) va ESP (English for Specific Purposes) yondashuvlari muhim metodik asos bo'la oladi. T. Dudley-Evans va M. J. St. Jon ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitishni o'quvchilarning akademik yoki kasbiy ehtiyojlarini aniqlash va shu ehtiyojlarga mos ta'lim mazmunini shakllantirish bilan bog'laydi. K. Hayland akademik ingliz tilini faqat grammatik va leksik bilimlar majmui emas, balki muayyan akademik hamjamiyatda samarali muloqot qilish vositasi sifatida talqin qiladi.

Shuningdek, J. Sualesning janr tahlili konsepsiyasi akademik matnlarning o'ziga xos kommunikativ tuzilishini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Demak, oliy ta'limdagi ingliz tili kurslarida akademik maqola, annotatsiya, taqdimot, ilmiy munozara, loyiha va boshqa akademik janrlar bilan ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xalqarolashtirilgan ta'lim muhitida til kompetensiyasi bilan bir qatorda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya ham muhim hisoblanadi. M. Byram konsepsiyasiga ko'ra, turli madaniy muhit vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun faqat til bilimining o'zi yetarli emas; madaniy farqlarni anglash, boshqa nuqtayi nazarlarni tushunish va mos kommunikativ strategiyalardan foydalanish ham zarur.

Shundan kelib chiqib, xalqarolashtirish sharoitida oliy ta'limda ingliz tili ta'limi mazmunini uch o'zaro bog'liq yo'nalishda takomillashtirish mumkin. Bular: akademik kommunikatsiya, kasbiy kommunikatsiya va madaniyatlararo kommunikatsiya hisoblanadi. Bunda umumiy til kompetensiyasi mazkur uch yo'nalish uchun bazaviy asos vazifasini bajaradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Oliy ta'limning xalqarolashuvi ingliz tili ta'limi mazmuniga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy ingliz tili ta'limi talabani nafaqat tilni bilishga, balki xalqaro akademik va kasbiy muhitda undan samarali foydalanishga tayyorlashi lozim. Shu sababli ta'lim mazmunida akademik ingliz tili, kasbiy yo'naltirilgan kommunikatsiya, akademik yozuv va og'zaki nutq, shuningdek, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Umuman, xalqarolashtirish ingliz tili ta'limi uchun tashqi omil emas, balki uning maqsadi, mazmuni va kutilayotgan natijalarini belgilovchi pedagogik omillardan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales. Journal of Studies in International Education, 8(1), 5–31. https://doi.org/10.1177/1028315303260832
2. Leask, B. (2015). Internationalizing the Curriculum. Routledge.
3. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press.
4. Hyland, K. (2009). Academic Discourse: English in a Global Context. Continuum.
5. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters.
6. Macaro, E., Curle, S., Pun, J., An, J., & Dearden, J. (2018). A systematic review of English medium instruction in higher education. Language Teaching, 51(1), 36–76. https://doi.org/10.1017/S0261444817000350

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.